FARG‘ONA VILOYATIDA JINOYATCHILIKNING HUDUDIY TARQALISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Muxitdinov Ilhomjon Ixtiyorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti,Geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.
1ilhomjonmuhitdinov@gmail.com ***Orcid ID:*** 0000-0002-3071-1044
Sultonaliyev Muxriddin Mamirjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasi 1-kurs magistranti
sultonaliyevmuxriddin@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Farg‘ona viloyati misolida jinoyatchilikning hududiy tarqalish xususiyatlari va unga bevosita hamda bilvosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar majmui nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholining bandlik va ishsizlik darajasi, demografik zichlik, urbanizatsiya ko‘rsatkichlari, yoshlar segmenti va migratsiya oqimlarining kriminogen vaziyatga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ishning nazariy-metodologik poydevori sifatida G. Beckerning jinoyatchilikka iqtisodiy yondashuvi hamda M. Cohen va M. Felsonning rutin faoliyat nazariyasi tatbiq etilgan. Maqolada hududiy kriminogen zonalashtirish, har 10 000 aholiga to‘g mezoniy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari orqali profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *jinoyatchilik, Farg‘ona viloyati, kriminogen omillar, ishsizlik, urbanizatsiya, aholi zichligi, yoshlar demografiyasi, migratsiya, G. Becker nazariyasi, rutin faoliyat nazariyasi, hududiy tahlil.*

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilik shunchaki huquqiy hodisa bo‘lib qolmasdan, balki muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik hamda hududiy sharoitlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy jarayondir. Shu sababli jinoyatchilikni umumiy shaklda emas, balki aniq bir hudud (viloyat, shahar, tuman) kesimida, uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganish va hududiy kriminogen xaritani shakllantirish ilmiy va amaliy jihatdan g‘oyat dolzarb hisoblanadi. Farg‘ona viloyati O‘zbekiston Respublikasining demografik va iqtisodiy jihatdan eng muhim va o‘ziga xos hududlaridan biridir. Viloyat respublikada aholi zichligi bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Urbanizatsiya sur’atlarining jadallashuvi, sa’noat va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi, shuningdek, ichki va tashqi migratsiya oqimlarining intensivligi hududda o‘ziga xos kriminogen muhit va ijtimoiy sharoitlarni keltirib chiqaradi.

Aholining hududlar bo‘yicha nomutanosib joylashuvi, ayrim tumanlarda ishsizlik ko‘rsatkichlarining mavjudligi va yoshlar ulushining yuqoriligi jinoyatchilikning hududiy tarqalishida turlicha dinamikani namoyon etadi. Shu munosabat bilan, Farg‘ona viloyatida jinoyatchilik va uning omillarini hududiy kesimda tahlil qilish, kriminogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarni aniqlash va manzilli profilaktika choralarini belgilash ushbu tadqiqotning bosh maqsadi hisoblanadi.

Nobel mukofoti laureati Gary Becker o‘zining mashhur *“Crime and Punishment: An Economic Approach”* (1968) asarida jinoyatchilik harakatini ratsional tanlov moduli orqali tushuntirib berdi. Bekker modeliga ko‘ra, shaxs jinoyat sodir etish yoki etmaslik qarorini kutilayotgan foyda va kutilayotgan xarajatlar (jazo muqarrarligi, jazoning og‘irligi, yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan daromad yoki obro‘) o‘rtasidagi nisbatni taqqoslash orqali qabul qiladi.

$$\text{Net Utility} = E(U) = (1-p)\cdot U(Y) + p\cdot U(Y-F)$$

(Bu yerda p – ushlanish va jazolanish ehtimoli, Y – jinoyatdan olinadigan daromad, F – hudud yuklamasi). Ushbu nazariyaga muvofiq, rasmiy mehnat bozorida ish bilan ta’minlanganlik va munosib daromad darajasi shaxsning jinoyat sodir etishdagi muqobil xarajatlarini oshiradi. Yoki aksincha, ishsizlik va past daromad sharoitida qonuniy yo‘l bilan daromad topish imkoniyati cheklanadi, bu esa mulkka qarshi jinoyatlarni (o‘g‘rilik, bosqinchilik, firibgarlik) sodir etishga bo‘lgan iqtisodiy rag‘batni oshiradi. Marcus Felson va Lawrence Cohen (1979) tomonidan ilgari surilgan *Routine Activity Theory* (Rutin faoliyat nazariyasi) jinoyatchilikni ijtimoiy tuzilma va insonlarning kundalik turmush tarzi bilan bog‘laydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, jinoyat sodir bo‘lishi uchun bir vaqt va hududda uchta asosiy omil kesishishi talab etiladi:

1. **Moyilligi bor huquqbuzar;**
2. **Qulay nishon yoki ob’ekt;**
3. **Layoqatli nazorat/himoyaning yo‘qligi.**

Farg‘ona viloyatidagi urbanizatsiyalashgan shaharlar hamda transport tugunlarida odamlar va moddiy boyliklarning intensiv harakati qulay nishonlar sonini oshiradi. Bandlikning pastligi esa moyilligi bor huquqbuzarlar toifasining ko‘payishiga hamda bo‘sh vaqtning nazoratsiz o‘tishiga olib keladi.

Jinoyatchilikka ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar tahlili. Ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlari jinoyatchilik dinamikasini belgilovchi eng birinchi drajali omildir. Ishsizlik faqatgina daromad yo‘qolishi bo‘lib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy izolyatsiyasiga, jamiyatdagi maqomining tushib ketishiga va ruhiy tushkunlikka olib keladi. Uzoq muddatli ishsizlik natijasida shaxsda deviant xulq-atvor shakllanishi va noqonuniy daromad manbalariga (o‘g‘rilik, kiberfiribgarlik, kontrabanda) murojaat qilish xavfi ortadi. Farg‘ona viloyatining sanoatlashgan va bandlik yuqori bo‘lgan tumanlarida mulkiy jinoyatlar ulushi, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan qishloq yoki chekka hududlarga nisbatan farq qilishi kuzatiladi.

Farg‘ona viloyati respublikada aholi eng zich joylashgan hudud hisoblanadi (1 km² ga 750 kishidan ortiq). Aholi zichligining yuqoriligi va urbanizatsiya darajasi (Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlari) quyidagi kriminogen oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- Shahar muhitida shaxslararo munosabatlarning anonimligi (bir-birini tanimaslik va nazoratning susayishi);
- Iqtisodiy faoliyat va moddiy boyliklarning bir joyda to‘planishi (mulkiy jinoyatlar uchun qulay nishon yaratadi);
- Aholi oqimining intensivligi sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik nazoratining qiyinlashishi.

Yoshlar (14–30 yosh) demografik nuqtai nazardan eng harakatchan va shu bilan birga kriminogen jihatdan en qaltis guruh hisoblanadi. Farg‘ona viloyati aholisi tarkibida yoshlar ulushi yuqori. Yoshlar o‘rtasida mehnat bozori imkoniyatlarining yetarsizligi, ta’lim tizimidan uzilib qolish yoki bo‘sh vaqtning mazmunsiz tashkil etilishi yoshlar va o‘smirlar jinoyatchiligining oshishiga zamin yaratadi.

Tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarning reabilitatsiyasi va ularni ish bilan ta’minlashdagi uzilishlar, shuningdek, qishloqlardan shaharlarga ichki migratsiya jarayonida rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan yashash holatlari jinoyatchilik xavfini oshiradi.

Farg‘ona viloyati Farg‘ona vodiysining muhim logistika va transport chorrahasi hisoblanadi. Yirik transport tugunlari va tranzit yo‘llar odam va tovarlar oqimini oshirish bilan birga, giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasi hamda kontrabanda hodisalarining tarqalishiga xizmat qilishi mumkin.

Jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini aniqlashda mutlaq ko‘rsatkichlardan foydalanish noto‘g‘ri ilmiy xulosalarga olib kelishi mumkin. Masalan, aholisi 500 ming bo‘lgan tuman bilan aholisi 100 ming bo‘lgan tumandagi jinoyatlar sonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslab bo‘lmaydi.

Hududlararo obyektiv taqqoslashni amalga oshirish uchun jinoyatchilik darajasining nisbiy ko‘rsatkichi (K_j) har 10 000 aholiga (yoki 1 000 aholiga) nisbatan quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_j = \left(\frac{J}{N}\right) \times 10\,000$$

(Bu yerda: J – muayyan hududda hisobga olingan jinoyatlarning umumiy soni, N – ushbu hududdagi doimiy aholi soni).

Geografik axborot tizimlari (GIS) vositasida Farg‘ona viloyatining tuman va shaharlari jinoyatchilik darajasiga ko‘ra 3 ta kriminogen zonaga bo‘linadi:

Yuqori kriminogen xavf zonalari (Qizil zona): Aholi zichligi va urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan, transport kesishmalarida joylashgan yirik shaharlar (Farg‘ona sh., Qo‘qon sh., Marg‘ilon sh.).

O‘rta kriminogen xavf zonalari (Sariq zona): Sanoat va qishloq xo‘jaligi aralash rivojlangan, ichki migratsiya faol bo‘lgan tumanlar (Oltiariq, Quva, Rishton, Bag‘dod tumanlari).

Past kriminogen xavf zonalari (Yashil zona): Aholi zichligi nisbatan past va an’anaviy turmush tarzi saqlangan chekka yoki tog‘li tumanlar (So‘x, Farg‘ona tumani tog‘li hududlari va h.k.).

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan nazariy va hududiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona viloyatida jinoyatchilikning tarqalishi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geografik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Gary Becker nazariyasi hamda Rutin faoliyat nazariyasiga tayanib, viloyatda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hamda kriminogen xavf "qizil zonasiga" kirgan tuman va shaharlarda yoshlar va mehnat migrantlari uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, kasb-hunarga qayta o‘qitish va monomarkazlar faoliyatini kengaytirish.

2. Viloyat IIB va tegishli mas’ul idoralar hamkorligida real vaqt rejimida ishlaydigan Kriminogen xarita dasturiy majmuasini yaratish. Bu patrul-post xizmatlari yo‘nalishlarini eng munosib va samarali shakllantirish imkonini beradi.

3. Yirik shaharlarda video-nazorat kameralari, aqlli yoritish tizimlari hamda chorraha va transport tugunlarida nazoratni kuchaytirish orqali layoqatli nazorat omilini oshirish.

4. Band bo‘lmagan yoshlar uchun IT-markazlar, sport va madaniyat ob’ektlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, maktab va kollej bitiruvchilarining bandlik monitoringini raqamlashtirish.

5. Tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni psixologik, huquqiy va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha manzilli dasturlarni davom ettirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anselin L. Spatial Econometrics: Methods and Models. Dordrecht: Kluwer, 1988. — 284 p.
2. Fotheringham A.S., Brunsdon C., Charlton M. Geographically Weighted Regression. — Chichester: Wiley, 2002. — 269 p.
3. Chainey S. Understanding Crime: Analyzing the Geography of Crime. Redlands: Esri Press, 2021. — 304 p.
4. Anselin L. Local Indicators of Spatial Association — LISA. // Geographical Analysis. — 1995. — Vol. 27, № 2. — P. 93–115.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Jinoyatchilik va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar. stat.uz.
6. Muxitdinov I.I. Farg‘ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 4. – B. 189–193.
7. Muxitdinov I.I. Jinoyatchilikni geografik jihatlarini tadqiq etishda GAT texnologiyalaridan foydalanish usullari (Farg‘ona viloyati misolida) // Ilim hám jámiyet (Fan va jamiyat). – 2025. – № 6 (1). – B. 42–44.
8. Muxitdinov I.I. Kriminogen vaziyatni shakllantiruvchi omillar va ularning tasnifi (Farg‘ona viloyati misolida) // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 5. – B. 279–289.
9. Muxitdinov I.I. Regional differences in crime in Fergana region // Экономика и социум. – 2025. – № 7 (134). – B. 156–160.

FARG‘ONA VILOYATIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

Madaminov Zafarjon Xudoyberdievich
Farg‘ona davlat universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d(PhD)
E-mail: zafarjonmadaminov23@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7048-6494
To‘lanboyeva Sarvinoz Rayimjon qizi
Yoqubjonova Nozanin Xolmurod qizi
Farg‘ona davlat universiteti, Geografiya yo‘nalishi 4-kurs talabalari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning tabiiy-geografik, iqtisodiy-geografik va demografik omillari kompleks tahlil qilingan. Viloyatning o‘ziga xos relyef sharoiti, agroklimatik resurslari, tuproq-meliorativ holati hamda yuqori aholi zichligi sharoitida qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona va intensiv foydalanish qonuniyatlari ochib berilgan. Farg‘ona viloyati hududida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning tumanlararo ixtisoslashuvi, oziq-ovqat xavfsizligi darajasi va unga ta’sir etuvchi ekologik-geografik xatarlar (suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, urbanizatsiya) statistik hamda hududiy tahlillar asosida baholangan. Tadqiqot natijalari asosida hududda barqaror oziq-ovqat ta’minotini shakllantirish, agroiqtisodiy klasterlar faoliyatini takomillashtirish, logistika zanjirlarini optimallashtirish va agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *oziq-ovqat xavfsizligi, Farg‘ona vodiysi, agrolandshaft, demografik yuklama, sug‘oriladigan yerlar, agrosanoat integratsiyasi, klaster tizimi, oziq-ovqat logistikasi.*

Kirish. XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb global muammolardan biri aholini sifatli, xavfsiz va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi, tuproq degradatsiyasi hamda global geosiyosiy beqarorlik sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat